



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI
ADMINISTRATSIYASI HUZURIDAGI
**TA'LIM SIFATINI TA'MINLASH
MILLIY AGENTLIGI**

TA'LIM DASTURINI
MAXSUS DAVLAT AKKREDITATSIYASIDAN O'TKAZISH BO'YICHA

YAKUNIY HISOBOT



ANDIJON DAVLAT TEXNIKA INSTITUTI
Davlat oliy ta'lim tashkiloti

60610300 – Kompyuter injiniringi
Bakalavriat



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI
ADMINISTRATSIYASI HUZURIDAGI
TA'LIM SIFATINI TA'MINLASH MILLIY AGENTLIGI**

60610300 – Kompyuter injiniringi

**TA'LIM DASTURINI MAXSUS DAVLAT AKKREDITATSIYASIDAN
O'TKAZISH BO'YICHA YAKUNIY HISOBOT**

ANDIJON DAVLAT TEXNIKA INSTITUTI

(Ekspert komissiyasi xulosasi asosida)

EKSPERT KOMISSIYASI TARKIBI



Rais: YUSUPOV JALOLIDDIN RASULJON O'G'LI

Toshkent shahridagi Turin politexnika universiteti

fan doktori (DSc), dotsent



A'zo: UMAROV TIMUR

British Management University (Toshkent)

falsafa doktori (PhD)

1. UMUMIY MA'LUMOTLAR

Ariza raqami	MAO260043
Xulosa raqami	1216
Xulosa sanasi	02.07.2026
Ta'lim tashkilotining to'liq nomi	"ANDIJON DAVLAT TEXNIKA INSTITUTI" DAVLAT MUASSASASI
Tashkilot manzili, litsenziya / identifikatsiya ma'lumotlari	Andijon viloyati, Andijon shahri, Bobur shox ko'chasi, 56-uy. Litsenziya: № 2684377, 06.01.2025. Guvohnoma: MAS № 0000353, 23.07.2026.
Baholangan ta'lim dasturi nomi	Kompyuter injiniringi
Yo'nalish / mutaxassislik kodi	60610300
Akkreditatsiya usuli	masofaviy / joyiga chiqib

2. HUQUQIY ASOSLAR

Xulosa tayyorlanishiga asos bo'lgan normativ-huquqiy hujjat:

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'rta maxsus, kasbiy, oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tashkilotlarini kompleks hamda maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish tizimini joriy etish to'g'risida" 2025-yil 6-avgustdagi 498-son qarori 1-ilovasi bilan tasdiqlangan "O'rta maxsus, kasbiy, oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tashkilotlarini kompleks hamda maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish tartibi to'g'risida"gi Nizom.

Maxsus davlat akkreditatsiyasi:

O'rta maxsus, kasbiy, oliy ta'limni va oliy ta'limdan keyingi ta'limni, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni amalga oshiruvchi davlat va nodavlat ta'lim tashkilotlarida ta'lim dasturlari bo'yicha o'quv jarayoni boshlanishidan oldin amalga oshiriladigan jarayon.

3. TA'LIM DASTURINING UMUMIY TAVSIFI

1. Ta'lim tashkilotining litsenziya/guvohnomasi: <i>License/Certificate of Educational Institution:</i>	№ 2684377, 06.01.2025
2. Ta'lim tashkilotining turi: <i>Type of Educational Institution:</i>	Davlat oliy ta'lim tashkiloti
3. Ta'lim dasturi kodi va nomi: <i>Code and Name of Study Programme:</i>	60610300 – Kompyuter injiniringi
4. Ta'lim dasturining ingliz tilida nomlanishi: <i>Name of Study Programme in English:</i>	60610300 – Computer Engineering
5. Ta'lim dasturining rus tilida nomlanishi: <i>Name of Study Programme in Russian:</i>	60610300 – Компьютерная инженерия
6. Hamkorlikda amalga oshirilishi: <i>Offered in Cooperation with:</i>	—
7. Ta'lim tili: <i>Medium of Instruction:</i>	o'zbek
8. Ta'lim shakli: <i>Mode of Study:</i>	kunduzgi / kechki
9. Ta'lim dasturi hajmi: <i>Study Programme Credits:</i>	240 kredit
10. Ta'lim dasturi davomiyligi: <i>Duration of Study Programme:</i>	4 yil / 4,5 yil
11. Milliy malaka ramkasidagi darajasi: <i>Level in National Qualifications Framework:</i>	6-daraja
12. Kvalifikatsiya(lar) nomi: <i>Qualification Title:</i>	Kompyuter tizimlari muhandisi
13. Qo'shimcha beriladigan kvalifikatsiyalar: <i>Additional Qualifications Awarded:</i>	—
14. Ta'lim dasturi yakunida beriladigan hujjat turi: <i>Type of Document Issued Upon Completion:</i>	Davlat namunasidagi diplom
15. Ta'lim oluvchilarning me'yoriy miqdori (to'liq davr): <i>Maximum Number of Students (full period):</i>	400 nafar
16. Ta'lim dasturini o'qitish manzili: <i>Address Where the Study Programme is Delivered:</i>	Andijon viloyati, Andijon shahri, Bobur shox ko'chasi, 56-uy

4. BAHOLASH YO'NALISHLARI VA MEZONLAR BO'YICHA NATIJALAR

Har bir yo'nalish bo'yicha baho (muvofig / muvofig emas) va har bir mezon bo'yicha baho (muvofig / qisman muvofig / muvofig emas) deb baholanadi.

№	Baholash yo'nalish (bob) va mezonlari	Muvofiqligi
1.	Tashkiliy-boshqaruv va sifatni ta'minlash	Muvofiq
1.1.	<i>ta'lim dasturini amalga oshirish bo'yicha tarkibiy tuzilma va uning samarali ishlash mexanizmlarining mavjudligi;*</i>	Muvofiq
1.2.	<i>ta'lim dasturini rivojlantirish va moliyaviy barqarorligini ta'minlash bo'yicha 5 yillik istiqbolli rejaning mavjudligi;</i>	Muvofiq
1.3.	<i>ta'lim dasturi doirasida sifatni ichki ta'minlash mexanizmining mavjudligi hamda bu jarayonlarda manfaatdor tomonlarning ishtiroki ta'minlangani;</i>	Muvofiq
1.4.	<i>mehnat bozori va ta'lim ehtiyojlari hamda ilmiy-tadqiqotning so'nggi tendensiyalarini aniqlash bo'yicha monitoring tizimining mavjudligi;</i>	Muvofiq
2.	Ta'lim dasturlari	Muvofiq
2.1.	<i>manfaatdor tomonlar ishtirokida ta'lim dasturining belgilangan tartibda ishlab chiqilgani. Bunda ta'lim dasturining maqsadi, natijalarining belgilangani, mehnat bozori, davlat ta'lim standarti va milliy malakalar ramkasi talablariga muvofiqligi;*</i>	Muvofiq
2.2.	<i>ta'lim dasturining milliy ta'lim tizimidagi ustuvor yo'nalishlar va xalqaro andozalar asosida ishlab chiqilgani;</i>	Muvofiq
2.3.	<i>ta'lim dasturining davomiyligi, fanlarning uzviyligi va uzluksizligi ta'minlangani;</i>	Muvofiq
3.	O'quv jarayonini tashkil etish va o'quv natijalarini baholash	Muvofiq
3.1.	<i>ishchi o'quv reja va dasturlarining belgilangan talablarga muvofiq ishlab chiqilgani;*</i>	Muvofiq
3.2.	<i>o'quv jarayonining ta'lim dasturida belgilangan o'quv natijalariga erishishga yo'naltirilgani;*</i>	Muvofiq
3.3.	<i>o'quv jarayonining doimiy baholab borilishi va takomillashtirishga qaratilgani;</i>	Muvofiq
3.5.	<i>ta'lim dasturi doirasida talabalar bilimining shaffof va xolis baholanishi, baholash jarayonlarining o'quv natijalariga muvofiqligi;</i>	Muvofiq
3.6.	<i>talabalarning baholash natijalari bo'yicha fikr-mulohazalarini olish imkoniyati mavjudligi;</i>	Muvofiq
3.7.	<i>ta'lim dasturida akademik halollik qoidalarining belgilangani va unga zid holatlarning oldini olish bo'yicha samarali tizimning mavjudligi;*</i>	Muvofiq

No	Baholash yo'nalish (bob) va mezonlari	Muvofiqligi
4.	Talabalar faoliyati	Muvofiq
4.1.	<i>ta'lim dasturi bo'yicha qabul talablari aniq belgilangani, o'qishga qabul qilish shaffof tarzda yo'lga qo'yilgani;</i>	Muvofiq
4.2.	<i>qabul parametrlarining ta'lim tashkilotining resurslari va imkoniyatlariga mos kelishi;*</i>	Muvofiq
4.3.	<i>talabalarining o'qishini ko'chirish, kursdan-kursga o'tkazish (qoldirish), o'qishdan chetlashtirish va o'qishini qayta tiklash tartibining belgilangani;*</i>	Muvofiq
4.4.	<i>talabalarni qo'llab-quvvatlash va ularga maslahat berish mexanizmlarining mavjudligi;</i>	Muvofiq
5.	Inson resurslari	Muvofiq
5.1.	<i>ta'lim dasturi uchun belgilangan me'yorlarga muvofiq pedagog kadrlar, shuningdek, boshqaruv, texnik, xizmat ko'rsatuvchi va o'quv-yordamchi xodimlar mavjudligi hamda ularning sifat tarkibi, malakasi va mutaxassisligi belgilangan talablarga mosligi;*</i>	Muvofiq
5.3.	<i>yangi ta'lim dasturlari bo'yicha o'quv rejadagi fanlarga mos (tegishli) kasbiy, pedagogik va ilmiy kompetensiyalarga ega pedagog kadrlar bilan ta'minlash bo'yicha aniq rejaning mavjudligi;*</i>	Muvofiq
5.4.	<i>kadrlarning kasbiy rivojlanishi va malaka oshirishiga sharoit yaratilgani, moddiy va ma'naviy rag'batlantirish tizimining mavjudligi;</i>	Muvofiq
6.	Moddiy-texnik ta'minot	Muvofiq
6.1.	<i>ta'lim dasturini amalga oshirish uchun amaliy, laboratoriya mashg'ulotlari va kurs ishi (loyiha)ni bajarish uchun zarur asbob-uskunalar, jihozlar, inventarlar, texnikalar, xomashyo materiallari va boshqalarning mavjudligi hamda metodik qo'llanma (ko'rsatma)lar bilan ta'minlangani;*</i>	Muvofiq
6.2.	<i>fanlar kesimida o'quv va o'quv-metodik adabiyotlar, elektron ta'lim resurslari bilan belgilangan talablarga muvofiq ta'minlangani;*</i>	Muvofiq
6.3.	<i>o'quv va laboratoriya xonalari hamda ustaxona (poligon)larning talabalar sonidan kelib chiqib, ta'lim dasturlariga mos jihozlar va axborot-kommunikatsiya vositalari bilan ta'minlangani hamda xavfsizlik qoidalariga rioya qilingani;*</i>	Muvofiq
6.4.	<i>inklyuziv ta'lim olish uchun binolar va jihozlarning moslashtirilgani, maxsus o'quv materiallarining mavjudligi, axborot-kommunikatsiya vositalaridan foydalanish imkoniyati yaratilgani;</i>	Muvofiq
6.5.	<i>axborot-resurs markazining (kutubxonaning) ta'lim dasturlariga mos o'quv adabiyotlari, kompyuterlar bilan ta'minlangani, o'quv zali va elektron kutubxonaning mavjudligi;*</i>	Muvofiq

No	Baholash yo'nalish (bob) va mezonlari	Muvofiqligi
6.6.	<i>raqamli ta'lim muhiti yaratilgani (LMS, wi-fi zonalari, onlayn kurslar, vebinarlar va masofaviy ta'lim imkoniyatlari);</i>	Muvofiq
6.7.	<i>ta'lim dasturi xususiyatidan kelib chiqib, maxsus xona yoki bino va inshootlarining (sport zali, stadion, musiqa xonasi va boshqalarning) mavjudligi.</i>	Muvofiq

5. BAHOLASH YO'NALISHLARI (BOB) BO'YICHA XULOSALAR

1-bob. Tashkiliy-boshqaruv va sifatni ta'minlash yo'nalishi

Taqdim etilgan hujjatlar hamda baholash jarayonida o'rganilgan dalillar asosida ta'lim dasturini boshqarish va ichki sifatni ta'minlash tizimi kompleks tahlil qilindi. Natijalar ta'lim dasturiga mas'ul Axborot texnologiyalari kafedrasini faoliyati samarali yo'lga qo'yilgani, uning vakolatlari va funksional vazifalari aniq belgilanganini, shuningdek dastur rivojlanishiga xizmat qiluvchi istiqbolli reja hamda ichki sifat monitoringi tizimi amalda izchil faoliyat yuritayotganini ko'rsatdi. Ta'lim jarayonini rejalashtirish, muvofiqlashtirish va muntazam takomillashtirishga qaratilgan boshqaruv mexanizmlarining amaldagi me'yoriy talablar asosida tashkil etilgani ham baholandi. Kafedra darajasida mas'uliyat va vakolatlarning aniq taqsimlangani ta'lim dasturini samarali boshqarish, sifat ko'rsatkichlarini muntazam nazorat qilish hamda qabul qilinayotgan boshqaruv qarorlarining izchilligini ta'minlashning muhim omillaridan biri sifatida e'tirof etildi. Baholash yakunlariga ko'ra, tashkiliy-boshqaruv tizimi va ichki sifatni ta'minlash mexanizmlari akkreditatsiya mezonlarida belgilangan talablarga mos ravishda yo'lga qo'yilgani qayd etildi.

2-bob. Ta'lim dasturlari yo'nalishi

Ta'lim dasturining mazmuni o'quv-me'yoriy hujjatlar, o'quv rejalari va fan dasturlari asosida har tomonlama tahlil qilindi. Baholash natijalari "Kompyuter injiniringi" ta'lim dasturi manfaatdor tomonlar ishtirokida belgilangan tartibda ishlab chiqilgani, uni ishlab chiqish, ko'rib chiqish va tasdiqlash jarayonlari amaldagi me'yoriy hujjatlar asosida tashkil etilganini ko'rsatdi. Shuningdek, dastur yakunida bitiruvchilarga "Kompyuter tizimlari muhandisi" kvalifikatsiyasi berilishi amaldagi talablar bilan uyg'unligi, ta'lim mazmuni zamonaviy axborot texnologiyalari sohasida zarur kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltirilgani baholandi. Dasturlash, tizim arxitekturasi hamda apparat ta'minotiga oid fanlarning o'zaro uzviy bog'liqligi

talabalarda kompleks muhandislik yondashuvini shakllantirish, nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan uyg'unlashtirish va zamonaviy kompyuter tizimlarini loyihalash hamda ulardan samarali foydalanish ko'nikmalarini rivojlantirishning muhim omillaridan biri sifatida e'tirof etildi. Baholash yakunlariga ko'ra, ta'lim dasturining mazmuni belgilangan akkreditatsiya mezonlari talablariga to'liq javob berishi aniqlandi.

3-bob. O'quv jarayonini tashkil etish va o'quv natijalarini baholash yo'nalishi

O'quv jarayonini tashkil etish va bilimlarni baholash tizimi bo'yicha taqdim etilgan hujjatlar hamda amaldagi amaliyot kompleks tahlil qilindi. Baholash natijalari ishchi o'quv rejalari va fan sillabuslari belgilangan me'yoriy talablar asosida ishlab chiqilganini, o'quv jarayoni kutilayotgan ta'lim natijalariga yo'naltirilgan holda tashkil etilganini ko'rsatdi. Shuningdek, bilimlarni baholash mezonlari shaffof va aniq belgilanganligi, akademik halollik tamoyillarini ta'minlashga qaratilgan mexanizmlar izchil joriy etilgani hamda ta'lim natijalarini xolis baholash tizimi samarali faoliyat yuritayotgani baholandi. Amaliy loyiha topshiriqlarining baholash jarayonida ustuvor o'rin egallashi talabalarining muhandislik tafakkurini rivojlantirish, nazariy bilimlarni amaliy yechimlar bilan uyg'unlashtirish hamda kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishning muhim omillaridan biri sifatida e'tirof etildi. Baholash yakunlariga ko'ra, o'quv jarayonini tashkil etish va bilimlarni baholash tizimi akkreditatsiya mezonlarida nazarda tutilgan talablarga mosligi bilan tavsiflandi.

4-bob. Talabalar faoliyati yo'nalishi

Talabalar faoliyatini tashkil etish va ularni akademik qo'llab-quvvatlash tizimi bo'yicha taqdim etilgan hujjatlar hamda amaldagi tartiblar har tomonlama o'rganildi. Baholash natijalari ta'lim dasturiga qabul talablari aniq belgilanganini, qabul jarayoni shaffof tamoyillar asosida amalga oshirilayotganini hamda qabul parametrlari institutning mavjud kadrlar, moddiy-texnik va o'quv-resurs imkoniyatlariga mos ravishda shakllantirilganini ko'rsatdi. Shuningdek, talabalar harakatini boshqarish, ularni akademik va axborot jihatdan qo'llab-quvvatlash, maslahat xizmatlarini ko'rsatish hamda ta'lim jarayonida zarur sharoitlarni yaratishga qaratilgan mexanizmlar samarali yo'lga qo'yilgani baholandi. Ayniqsa, 400 nafar qabul parametri sharoitida talabalar guruhlarini mavjud auditoriyalar, professor-o'qituvchilar tarkibi va o'quv resurslari bilan muvozanatlashtirish ta'lim sifatini barqaror saqlash, o'quv jarayonining samaradorligini ta'minlash hamda belgilangan o'quv natijalariga erishishning muhim omillaridan biri sifatida e'tirof

etildi. Baholash yakunlariga ko'ra, talabalar faoliyatini tashkil etish va qo'llab-quvvatlash tizimi belgilangan akkreditatsiya mezonlari talablariga javob berishi qayd etildi.

5-bob. Inson resurslari yo'nalishi

Inson resurslari yo'nalishi doirasida professor-o'qituvchilar tarkibi, ularning malakasi va ta'lim dasturini kadrlar bilan ta'minlash holati kompleks tahlil qilindi. Baholash natijalari dastur uchun belgilangan me'yorlarga muvofiq pedagog kadrlar shakllantirilgani, kafedrada 19 nafar professor-o'qituvchi faoliyat yuritayotgani hamda ularning sifat tarkibi va kasbiy malakasi amaldagi talablarga javob berishini ko'rsatdi. Shuningdek, professor-o'qituvchilarning ilmiy-pedagogik salohiyatini rivojlantirish, zamonaviy o'qitish metodlarini qo'llash va ta'lim sifatini uzluksiz oshirishga qaratilgan faoliyat tizimli ravishda amalga oshirilayotgani baholandi. Axborot texnologiyalari sanoatida faoliyat yuritayotgan amaliyotchi mutaxassislarining o'quv mashg'ulotlariga jalb etilishi ta'lim dasturining dolzarbligini ta'minlash, talabalarning amaliy kompetensiyalarini rivojlantirish hamda ularni sohaning zamonaviy talablari asosida tayyorlashning muhim omillaridan biri sifatida e'tirof etildi. Baholash yakunlariga ko'ra, inson resurslarini boshqarish va rivojlantirish tizimi belgilangan akkreditatsiya mezonlari talablariga to'liq mosligi tasdiqlandi.

6-bob. Moddiy-texnik ta'minot yo'nalishi

Moddiy-texnik ta'minot yo'nalishi bo'yicha mavjud infratuzilma, o'quv jihozlari va axborot-resurs bazasi kompleks baholandi. Tahlil natijalari ta'lim dasturini sifatli amalga oshirish uchun zarur moddiy-texnik sharoitlar yaratilganini, institutda 200 ta kompyuter, 5 ta server, 10 ta interaktiv doska hamda 2 ta smart-laboratoriya faoliyat yuritayotganini ko'rsatdi. Shuningdek, o'quv adabiyotlari, elektron ta'lim resurslari va axborot-resurs bazasi talabalarning o'quv jarayoni hamda mustaqil ta'limini samarali tashkil etish uchun yetarli darajada ta'minlangani baholandi. Hisoblash texnikasi bazasi va laboratoriyalarning muntazam yangilanib borilishi zamonaviy axborot texnologiyalari sohasidagi o'zgarishlarga mos ravishda ta'lim jarayonini tashkil etish, talabalarning amaliy ko'nikmalarini rivojlantirish hamda belgilangan o'quv natijalariga to'liq erishishni ta'minlovchi muhim omillardan biri sifatida e'tirof etildi. Baholash yakunlariga ko'ra, moddiy-texnik ta'minot tizimi akkreditatsiya mezonlarida nazarda tutilgan talablarni to'liq qamrab olishi xulosa qilindi.

6. BAHOLASH YO'NALISHLARI (BOB) BO'YICHA ANIQLANGAN KAMCHILIKLAR VA NOMUVOFIQLIKLAR

Jiddiy kamchiliklar (akkreditatsiyaga to'sqinlik qiluvchi):

Ta'lim dasturini yo'lga qo'yish uchun to'sqinlik qiladigan jiddiy kamchiliklar aniqlanmadi

Bartaraf etilishi lozim bo'lgan juz'iy kamchiliklar:

- ✓ Xalqaro hamkorlik va akademik almashinuv imkoniyatlari to'liq ishga solinmagan.
- ✓ Ayrim fanlar bo'yicha eng so'nggi yillarda nashr etilgan o'quv adabiyotlari ulushini oshirish talab etiladi.
- ✓ Ilmiy-tadqiqot natijalarini xalqaro nashrlarda e'lon qilishni faollashtirish zarur.

7. TA'LIM DASTURINI SIFATLI TASHKIL ETISH BO'YICHA TAVSIYALAR

- ✓ Xalqaro hamkorlik, qo'shma dasturlar va akademik almashinuv imkoniyatlarini bosqichma-bosqich kengaytirish.
- ✓ O'quv adabiyotlari va elektron resurslar fondini muntazam yangilab borish.
- ✓ Professor-o'qituvchilarning xalqaro ilmiy nashrlardagi ishtirokini rag'batlantirish.
- ✓ Amaliyotchi mutaxassislarni o'quv jarayoniga jalb etishni davom ettirish.

8. TA'LIM DASTURI BO'YICHA YAKUNIY XULOSA

Baholash natijalariga ko'ra, Andijon davlat texnika institutida 60610300 – “Kompyuter injiniringi” bakalavriat ta'lim dasturi bo'yicha taqdim etilgan hujjatlar, o'quv-uslubiy materiallar, tashkiliy-boshqaruv mexanizmlari, kadrlar salohiyati hamda moddiy-texnik ta'minot kompleks tahlil qilindi. O'rganish natijalari ta'lim dasturini boshqarish va ichki sifatni ta'minlash tizimi samarali shakllantirilgani, dastur davlat ta'lim standarti, Milliy malakalar ramkasi hamda mehnat bozori ehtiyojlariga muvofiq ishlab chiqilgani, o'quv jarayoni shaffof baholash mexanizmlari va akademik halollik tamoyillari asosida tashkil etilgani, talabalarni qabul qilish hamda akademik qo'llab-quvvatlash tizimi izchil yo'lga qo'yilgani, professor-o'qituvchilar tarkibi belgilangan talablarga javob berishi, shuningdek zamonaviy laboratoriyalar, o'quv adabiyotlari, elektron resurslar va raqamli infratuzilmaning ta'lim dasturini sifatli amalga oshirish uchun yetarli darajada ta'minlangani bilan tavsiflandi. Baholash yakunlariga ko'ra, 6 ta yo'nalish bo'yicha baholangan barcha 27 ta mezon muvofiq deb topildi. Aniqlangan ayrim jihatlar ta'lim dasturining amalga oshirilishiga salbiy ta'sir ko'rsatmaydigan hamda uni yanada takomillashtirishga

xizmat qiluvchi tavsiyaviy xususiyatga ega ekanligi qayd etildi. Umuman olganda, bakalavriat ta'lim dasturining akkreditatsiya mezonlarida belgilangan barcha talablarga muvofiqligi asoslandi va u muvofiq deb baholandi.

9. TA'LIM DASTURI BO'YICHA AKKREDITATSIYA KOMISSIYASI QARORI

Akkreditatsiya komissiyasi qarori sanasi:	20.07.2026
Akkreditatsiya komissiyasi bayon soni:	5-son
Yakuniy qaror:	AKKREDITATSIYADAN O'TDI



+998 55 505 30 30



info@nqaee.uz
www.nqaee.uz



@nqaeeuz



@nqaeeuzbot

